

UCH SHOHLI NERV VA UNING PATALOGIYASI

Toshkent davlat Stomatologiya instituti

Muxtorova S.

TDSI davolash fakulteti 2-kurs

Maxammatova B.

TDSI davolash fakulteti 2-kurs

Xusanova M.A

Ilmiy rahbar:

Anatomiya va klinik anatomiya kafedrasи

Toshkent davlat Stamotologiya instituti info@tsdi.uz

Annotatsiya: Mamlakatimiz tajribasini va eng yaxshi jahon yutuqlarini uyg‘unlashtirish asosida tibbiyat fanini rivojlantirish strategiyasini va prognozlashni ishlab chiqish, ilmiy-tibbiy tadqiqotlar samaradorligini oshirish, fan, texnika va ilg‘or tajriba yutuqlarini sog‘liqni saqlash amaliyotiga joriy qilish.

Kalit so‘zlar: V juft bosh miya nervi, uch shoxli nerv (n.trigiminus)ning anatomik tuzilishi, nevrologik kasalliklari, Nevralgiya, yuzning o‘ng qismidagi og‘riqlar.

Kirish: Uch shoxli nerv - bosh miya nervlarining V jufti. Varoliy ko‘prigi bilan miyachanining o‘rta oyog‘i oralig‘ida joylashgan. N.Trigiminusning sezuvchi, harakatlantiruvchi va vegetativ nerv tolalari farqlanadi. Uch shoxli nervnning sezuvchi tolalari teri, shilliq qavat va og‘iz ichini, harakatlantiruvchi nerv tolalari esa chakka va chaynov muskullarini innervatsiyalaydi. Uch shoxli nervnning ko‘p uchraydigan kasalliklaridan nevralgiya kuchli og‘riq bilan kechadi. Uch shoxli nerv nevralgiyasi (shamollashi) kuchli depressiya, tashvish va uyqu buzilishining yuqori darajasi bilan bog‘liq va bunda og‘riq yuz hamda bo‘yinga tarqaladigan, hatto eng kchik shamol nafasi bilan ham yuzaga keladigan yuz og‘rig‘ining eng keng tarqalgan turidir. Stenford universitetidagi Anesteziologiya va og‘rig tadqiqotlari instituti inson his gilishi mumkin bo‘lgan eng kuchli og‘riq turlari reytingini tuzishdi.

Reytingga ko‘ra, uch shoxli nervning yalig‘lanishi eng kuchli og‘riq berar ekan. Bu og‘riqni his qilganlar uni 10 balli shkaladan 10 ballga baholashgan. Uch shoxli nerv nevralgiyasi tarqalishi juda yuqori bo‘lib, Juhon sog‘liqni saqlash tashkiloti ma‘lumotiga ko‘ra kasallanish darajasi har 10000 aholiga 2-4 tani tashkil etadi. Statistikaga ko‘ra dunyo bo‘ylab 1 milliondan ortiq odamlar mazkur kasallik bilan aziyat chekmoqda. Ko‘pincha bu kasallik 50-70 yoshlik ayollar (ayollar va erkaklar kasallanishi 3:1 nisbatda) uchraydi. Nevralgiyaning ushbu turi birinchi marta 1773-yili shifokor Jon Fotergill tomonidan tasvirlangan va Edinburg universiteti tibbiyat fakulteti bitiruvchisi Jon Murray Karnochan tomonidan jarrohlik yo‘li bilan

davolangan. Bemorlarda kuchli og'riq va suitsidga moyillikning yuqoriligi tufayli ushbu kasalik tarixan "o'z joniga qasd qilish kasalligi" deb ham nomlangan.

Odatiy simptomlari: yuzning bir tomonida bir necha soniyadan bir daqiqagacha davom etadigan kuchli, to'satdan, shokka o'xshash og'riq kuzatiladi. Noodatiy simptomlarida esa doimiy, to'xtovsiz davom etadigan kuchli og'riq kuzatiladi. Kasallikning aniq sabablari aniqlanmagan, ammo rivojlanishiga turli qon tomirlari, endokrin-metabolik, allergik kasalliklar, shuningdek psixogen omillar sabab bo'ladi.

Ko'p hollarda uch shoxli nerv nevralgiyasi tish og'rig'i singari namoyon bo'ladi. Dastavval bemor tish og'ridan shikoyat qillb stomatologlarga murojaat qiladi. Bu og'riqni tarqatish zonasini nafaqat yuzda, balki og'iz bo'shlig'ida joylashganligi bilan bog'liq. Ayrim hollarda bemorning qistovi bilan sog'lom tishlar ham olib tashlanadi, Shunga qaramay og'rig boshqa tishlarda paydo bo'ladi. Og'riq chidab bo'lmas darajaga yetadi, bu xuddi bemorning yuz qismiga elektr toki urgandek namoyon bo'ladi. Tishlarni tozalash ovqatlanish, sovuq havo va hatto gaplashish ham og'riqni qo'zg'atib yuboradi. Asabga zarar yetkazish odatda yuzning shikastlanishi, burun bo'shliqlarida yallig'lanish yoki davolanmagan tishlar sababli vujudga keladi. Nevralgiyaning oldini olish faqat yallig'lanish jarayonlarini oldini olish orqali davolash mumkin. Chunki o'smalarning rivojlanishiga yoki yuqumli kasalliklar paydo bo'lishiga ta'sir qila olmaymiz.

Xulosa: V juft uch shoxli nervni shikastlanish yuz sohasidagi og'riqlarni vujudga keltiradi. Asosan og'riq yuzning o'ng yarmida hurujlar shaklida uchraydi. Nevralgiyaning yangi xurujlari ehtimolini kamaytirish uchun quyidagi oddiy qoidalarga rioya qilish kerak: stressdan qochish, ko'proq uxlash, spirtli ichimliklarni iste'mol qilishda me'yorga rioya qilish, jismoniy faollikni cheklash, shuningdek yalig'lanish va yuqumli kasalliklarni o'z vaqtida davolash kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Gadayev, A., Mirsharipov, U. Odam anatomiyasi [Matn] /Gadayev Abdig'affor, Utkur Mirsharapov - Toshkent: Muharrir nashriyoti, 2022. -704 b.
2. <https://dmclinic.uz/uch-shox-nervning-nevralgiyasi/>
3. <http://https/library.tsdi.uz/sahifa/I?page=6>
4. <https://avitsenna.uz/nevralgiya-kasalligi/>